

Ma'muriy-hududiy tuzilma

Farg'ona viloyati — O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. 1938-yil 15-yanvarda tashkil etilgan. Respublikaning sharqida, Farg'ona vodiysining janubida joylashgan. Shimoldan Namangan, Andijon viloyatlari, janub va sharqdan Qirg'iziston, g'arbdan Tojikiston Respublikalari bilan chegaradosh. Maydoni 6,8 ming km². 3 564,6 ming kishidan iborat bo`lib, uning 50,3 foizini erkaklar va 49,7 foizini ayollar tashkil etadi. Shahar joylarida yashovchi aholi jami aholining 56,7 foiziga to`gri kelmoqda. (2017). Tarkibida 15 tuman, 4 shahar bor. Markazi — Farg'ona shahri.

asosiy sanoat tarmoqlari-yoqilg'i(neftni qayta ishlash), engil (paxta tozalash), oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari: donchilik, paxtachilik, bog'dorchilik, uzumchilik va go'sht-sut chorvachiligi, parrandachilik, ipakchilik;

Shaharlar

	Shaharlar nomi
1	Farg'ona shahar
2	Qo'qon shahar
3	Marg'ilon shahar
4	Quvasoy shahar

Tumanlari

	Tuman nomi	Tuman markazi
1	Oltiariq tumani	Oltiariq ^{1 / 2}

	Tuman nomi	Tuman markazi
2	Bagʻdod tumani	Bagʻdod (shaharcha)
3	Beshariq tumani	Beshariq
4	Buvayda tumani	Ibrat (shaharcha)
5	Dangʻara tumani	Dangʻara
6	Fargʻona tumani	Vodil
7	Furqat tumani	Navbahor (qishloq)
8	Qoʻsh tepa tumani	Langar (qishloq)
9	Quva tumani	Quva
10	Rishton tumani	Rishton
11	Soʻx tumani	Ravon (qishloq)
12	Toshloq tumani	Toshloq
13	Uchkoʻprik tumani	Uchkoʻprik
14	Oʻzbekiston tumani	Yaypan
15	Yozyovon tumani	Yozyovon